



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA QIZIQARLI MATEMATIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Qarshiyeva Sevinch Zokir qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Qarshiyevasevinch416@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17341642>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'yin usuli orqali o'rgatishning samarali metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yin yordamida o'qitish nafaqat bolalarda matematik bilimlarni oshirish, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish imkonini beradi. Maqolada matematik o'yinlarning turlari, pedagogik afzalliklari hamda ularni bosqichma-bosqich sinfda qo'llash tavsiyalari keltiriladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinflarda matematika, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, raqamlar, qiziqish, o'yin faoliyati, tangram.

Annotation. This article analyzes effective methods of teaching mathematics to primary school students through games. The results of the study show that teaching through games not only allows children to improve their mathematical skills, but also to develop logical thinking and creative approaches. The article presents the types of mathematical games, their pedagogical advantages, and recommendations for their gradual use in the classroom.

Keywords: In elementary grades, mathematics, logical thinking, critical thinking, numbers, curiosity, play activities, tangram.

Аннотация. В статье анализируются эффективные методы обучения математике учащихся начальной школы посредством игр. Результаты исследования показывают, что игровое обучение позволяет не только совершенствовать математические навыки детей, но и развивать логическое мышление и творческие способности. В статье представлены виды математических игр, их педагогические преимущества и рекомендации по их поэтапному использованию в классе.

Ключевые слова: В начальных классах — математика, логическое мышление, критическое мышление, цифры, любознательность, игровая деятельность, танграм.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va darslarni qiziqarli shaklda o'tkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda, ularning yoshiga xos psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, bilim berish jarayoniga o'yin elementlarini kiritish samarali natijalar beradi. Matematikani o'yin orqali o'rgatish nafaqat o'quvchilarning fan bilan tanishuvida, balki raqamlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishda, ya'ni "raqamlar bilan do'stlashish"da muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi — o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va asosiy matematik tushunchalarni shakllantirish davridir. Bu jarayonni lib xizmat qiladi. Ma'lumki, o'yin faoliyati bola uchun tabiiy va qulay muhit bo'lib, u orqali bilim olish jarayoni ongli va ijobiy hissiyotlar bilan kechadi. Shuning uchun matematika darslarida o'yinlardan foydalanish bolalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, balki ularni raqamlar va hisoblash amallari bilan do'stlashtiradi. Matematika boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish

uchun muhim fanlardan biridir. Ammo yosh o'quvchilar uchun matematik tushunchalarni qabul qilish va o'zlashtirish ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, pedagogik jarayonda o'yin metodikasi juda samarali vosita hisoblanadi. O'yin bolalar faoliyatining tabiiy shakli bo'lib, u orqali bilimlarni qiziqarli va oson o'zlashtirish mumkin.

Tahlil va natijalar.

Boshlang'ich sinfda matematika darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshadi. Ayniqsa, raqamlar bilan ishlash, hisoblash, taqqoslash, guruhlash kabi ko'nikmalarni shakllantirishda o'yin shakllari orqali mashqlar bajarish o'quvchilarni charchatmaydi, balki ularni yanada faolroq ishtirok etishga undaydi. Quyida boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitishda qo'llaniladigan ba'zi qiziqarli o'yinlar va metodlardan namunalar keltirilgan:

Svetofor (Yo'lchiroq) o'yini.

O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi. O'quvchilarni 3 guruhga bo'lib olamiz.

Har bir guruh uchun alohida misollar beriladi. Misollar qizil, sariq va yashil rangli doirachalar ortiga yoziladi, ya'ni doiralar yo'lchiroq ranglari ketma-ketligida joylashtirilib, bunday doirachalar uchala qator uchun alohida tayyorlanadi.

$$84-7=77$$

$$54-6=48$$

$$28-9=19$$

$$64+8=$$

$$78+4=82$$

$$87+5=92$$


$$34-4=3$$

$$46-6=40$$

$$97-7=90$$

Har bir guruhdan birin-ketin o'quvchilarni qizil doirachalar orqasidagi misollarni, keyin sariq doirachalar orqasidagi misollarni, so'ngida yashil doirachalar orqasidagi misollarni musobaqa tarzida yechib olishadi. Har bir to'g'ri ishlangan misol natijasida svetoforning shu rangi chirog'i yonadi. Noto'g'ri ishlangan misolni chirog'i yonmaydi.

Tangram – bu yetti xil rangdagi geometrik shakllardan iborat bo'lgan Xitoy jumboq o'yini bo'lib, ular bir-biriga qo'shilganda kvadratni hosil qiladi va yangi shakllar, raqamlar, harflar yoki boshqa tasvirlar yaratish uchun ishlatiladi. O'yinning asosiy qoidalari shundaki, barcha yetti shakldan foydalanish va ularni bir-birining ustiga qo'ymaslik kerak. Tangram yosh bolalarda nozik motor ko'nikmalarini, fazoviy fikrlashni, mantiqiy tafakkurni va tasavvurni.



Zakovatli zukko -metodi. Ushbu metod mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega.



Metod o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. O'z bilimini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savol uchun ballar belgilanadi. Metod o'quvchilar bilan yakka, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf matematika darslarida qiziqarli o'yinlardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki matematikani yaxshiroq tushunishga va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. O'yinlar orqali o'rganish jarayoni yanada interaktiv, mazmunli va samarali bo'lib, bolalarning ijodiy fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyatlari rivojlanadi. Shu bois, o'qituvchilar dars rejasiga turli o'yin usullarini kiritib, o'quvchilarni rag'batlantirishga va ularning matematik bilimlarini mustahkamlashga e'tibor qaratishlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.U.Bikbayeva va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. -T, "O'qituvchi" 2007.
2. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan qiziqarli oyinlar. "Istiqlol"2005
3. Bikbaeva N.D. Zaynitdinova M.A. "Boshlang'ich ta'limda matematikadan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish". - T.
4. "G'.G'ulom" 2008
5. Yunusova D.I. "Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari".
6. Toshkent – 2007 yil
7. 5 1-4 –sinf darsliklari